

O'quv jarayonini tashkil etishda o'qituvchi uchun zarur bo'lgan bilimlarni aniqlang:

1. Ta'lim maqsadlariga erishish uchun har xil turdagi rejalarni tayyorlashning tuzilishi va tamoyillari
2. Ta'lim jarayonini tashkil etishning didaktik tamoyillari
3. Hamkorlikning shakl va usullari, individual va jamoaviy ishlash xususiyatlari
4. Yosh pedagogikasi, psixologiya asoslari, bolalar bilan tarbiyaviy ish olib borish metodikasi va texnikasi

Javob; 1, 2

Zarur bilimlar	O'quv reja va davlat ta'lim standartlari, shuningdek maktab ishi bilan bog'liq boshqa hujjatlar (ta'lim tizimining tuzilishi va vazifalari — maqsadlari, huquqiy asoslari, ta'lim muassasalarining tashkil etilishi va faoliyati).
	O'qitiladigan fan davlat ta'lim standartlari va asosiy umumta'lim dasturi, uning tarixi, shuningdek jahon madaniyati va fanidagi o'rni talablar doirasida
	Fanni o'qitishning turli usullari
	Ta'lim maqsadlariga erishish uchun har xil turdagi rejalarni tayyorlashning tuzilishi va tamoyillari
	Ta'lim jarayonini tashkil etishning didaktik tamoyillari
	Faoliyatni rejalashtirish uchun AKT

1-savol Asos kasb standarti qo'llanmasi

2-savol;

Direktor o'rinbosari yosh mutaxassisning darslarini nazorat qildi. Yosh mutaxassis dars davomida o'quvchilarni guruhlariga bo'lib, ularni berilgan vazifani birgalikda bajarishga undadi. Vazifani bajarish davomida bir-birlarining fikr-mulohazalariga e'tiborli bo'lishni o'rgatdi. Bajarilgan vazifa natijasiga ko'ra har bir guruh o'z ishini taqdimot qildi. Shunda o'qituvchi ta'lim samaradorligini ta'minlash uchun kerakli bo'lgan qanday ko'nikmalarni namoyon etdi?

JAVOB: Sinfni boshqarish, o'quvchilar hamkorlikdagi va loyiha ishlarini tashkil etish.

mazmuni, vazifalari va shakllarini tanlang.
Har bir o'quvchining ehtiyojlari va qobiliyatlarini diagnostika qilish.
O'quvchilarning ijodkorlikka, muammolarni mustaqil, shuningdek jamoaviy hal qilish va tanqidiy fikrlashiga e'tibor bergan holda asosiy kompetensiyalari va hayotiy ko'nikmalarini rivojlantirish.
Motivatsion vaziyatlarni yaratish, ularning samaradorligini tahlil qilish va kerakli natijalarga erishishda o'z harakatlarini o'zgartirish.
Sinfni boshqarish, o'quvchilar hamkorlikdagi va loyiha ishlarini tashkil etish.

2-savolga Asos kasb standarti qo'llanmasi

3-savol

Tajribali pedagog har bir nazorat ishidan so'ng o'quvchilar bilan xatolar ustida ish olib boradi. Ularga yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklarni qanday tuzatish mumkinligi haqida tushuntiradi. Ota-onalar majlisida esa har bir o'quvchining kuchli va zaif tomonlari haqida ma'lumot berib boradi. Bu vaziyatda malakali ustoz o'zlashtirishni baholash va qayta aloqani taqdim etish mehnat harakatlarining qaysi zarur ko'nikmasini namoyon qiladi?

Javob; O'quvchilarga va ota-onalar(ularning o'rnini bosuvchi shaxslar)ga ta'lim va baholash natijalari to'g'risida qayta aloqani o'rnatish uchun turli xil strategiyalardan foydalanish

Zarur ko'nikmalar	O'quvchilarning rivojlanish ishlarini rag'batlantirishdagi baholash va baholash jarayonining turli usullaridan foydalanishni
	Diagnostik va baholash testlarining har xil turlarini ishlab chiqishni.
	O'quvchilarning turli xil ehtiyojlari va qobiliyatlari bilan bog'liq holda baholash usullarini shaxsga yo'naltirish
	O'qitish metodikasi va amaliyotini moslashtirishda o'quvchilarning baholanishiga oid ma'lumotlarini talqin qilish
	O'quvchilarga va ota-onalar(ularning o'rnini bosuvchi shaxslar)ga ta'lim va baholash natijalari to'g'risida qayta aloqani o'rnatish uchun turli xil strategiyalardan foydalanish

3-savolga Asos kasb standarti qo'llanmasi

4-savol

Moslikni toping

1. Tarbiyaviy faoliyatni tashkil etish	A) O'quvchilarning qiziqishlarini uyg'otib, ular bilan ishlash; mustaqil ishning mazmuni, vazifalari va shakllarini tanlash
2. Xavfsiz rivojlantiruvchi ta'lim muhitini yaratish va ta'minlash	B) Bolalar jamoasida ishbilarmonlik, do'stona muhitni qo'llab-quvvatlash
	C) Favqulodda yoki xavfli vaziyatlarda malakali harakat qilish, kerak bo'lganda, birinchi yordam ko'rsatish

Javob; 1-B; 2-C

TARBIYAVIY FAOLIYATNI TASHKIL ETISH

Mehnat harakatlari	O'quvchilarning ehtiyojlarini inobatga olgan holda rivojlanishiga hissa qo'shadigan ta'lim maqsadlari va vazifalarini belgilash.
	Tarbiyaviy ishlarning zamonaviy, shu jumladan interaktiv shakl va usullarini mashg'ulot va sinfdan tashqari ishlarida qo'llash
	Tarbiya ishlarni olib borishda o'quvchilarning jinsi, yoshi, madaniy va individual xususiyatlarini inobatga olish.
	Bolaning emotsional-qadriyatli sohasini rivojlantiradigan vaziyatlar va hodisalarni loyihalashtirish (bolaning ta'sirchanlik madaniyati va qadriyatlarining yo'nalishlarini)
	Ta'lim muassasaning ustavi va ichki tartib qoidalariga muvofiq o'quvchilar uchun aniq odob-axloq qoidalarini belgilash va o'rnatish
	O'quvchilarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini tashkil qilishda yordam berish va qo'llab-quvvatlash
	Ta'lim muassasaning imkoniyatlarini, yashash joyi va mintaqaning tarixiy-madaniy o'ziga xosligini hisobga olgan holda sinfdan tashqari ishlarning har xil turlarini: o'yin, o'quv-tadqiqot, badiiy va samarali, madaniy va bo'sh vaqtlarini tashkil etish
	Ziddiyatlarni hal qilish, sinfdan va undan tashqarida muloqot qilish uchun ijobiy muhit yaratishda muloqot o'tkazish
	O'zgaruvchan ko'p madaniyatli muhitda o'quvchilarda bag'rikenglik, odob-axloq va hayotga tayyorgarlik bo'yicha ko'nikmalarni shakllantirish
	O'quvchilarda kognitiv faollik, mustaqillik, tashabbuskorlik, ijodkorlik, fuqarolik pozitsiyasi, mehnatga layoqati, sog'lom va xavfsiz turmush tarzi madaniyatini rivojlantirish

Zarur ko'nikmalar	Bolalar ning madaniy tafovutlari, jinsi, yoshi va individual xususiyatlarini inobatga olgan holda ta'lim faoliyatini tashkil qilish
	Bolalar bilan muloqot qilish, ularning qadr-qimmatini tan olish
	O'quvchilarni ta'lim va tarbiya jarayoniga jalb qilish, ularning o'quv va bilim faoliyatiga qiziqtirish maqsadida o'quv guruhlarini boshqarish
	Bolalar jamoasida ishbilarmonlik, do'stona muhitni qo'llab-quvvatlash
	O'quvchilarning qadr-qimmati va manfaatlarini himoya qilish, ziddiyatli vaziyatda va / yoki noqulay sharoitlarda bo'lgan bolalar ga yordam berish

XAVFSIZ RIVOJLANTIRUVCHI TA'LIM MUHITINI YARATISH VA TA'MINLASH

Mehnat harakatlari	O'quvchilar erkin rivojlanishlari va o'zlarini namoyon eta olishlari uchun o'zaro hurmat muhitini yaratish
	Jinsi, millati, madaniyati, ona tili, dini, oilaviy ijtimoiy-iqtisodiy holati va / yoki alohida ehtiyojlaridan qat'iy nazar, har bir o'quvchiga o'qish va sinf hayotida qatnashish uchun teng imkoniyatlar yaratish
	Nizoli vaziyatlarni yetarli darajada hal qilish
	O'quvchilarga xavfsizlik qoidalarini mazmuni va ularga rioya qilish asoslarini tushunishga va unga rioya qilishga yordam berish
	O'quvchilarni sinf(guruh)dagi va maktabdagi odob-axloq qoidalarini yaratish va unga rioya etishga jalb qilish
	O'quvchilarga turli xil tahdidlarning mohiyati, favqulodda vaziyatlarda protseduralarning mazmuni va harakatlar ketma-ketligini tushuntirish
	O'quvchilarning ehtiyojlariga javob beradigan aniq ko'rsatmalar berish orqali sinf(guruh)dagi o'quvchilar faoliyatini boshqarish
	O'quvchilarning maxsus ta'limiy ehtiyojlari asosida individuallashtirilgan ish olib borish
Zarur ko'nikmalar	O'quvchilarga zamonaviy ommaviy axborot vositalari dunyosida xavfsiz ishlashga yordam berish
	Mazmunli ta'lim muhitini tashkil qilish va o'zgartirish
	Turli madaniyatdagi bolalar o'spirinlar bilan ishlashga imkon beradigan madaniyatlararo kompetensiyalarga ega bo'lish
	O'quvchilarga o'zlarining asoslangan va mas'uliyatli qarorlarini qabul qilishlariga yordam berish
	O'quvchilarda fuqarolik kompetensiyalari va media savodxonligini shakllantirish
	Favqulodda yoki xavfli vaziyatlarda malakali harakat qilish, kerak bo'lganda, birinchi yordam ko'rsatish

4-savolga Asos kasb standarti qo'llanmasi**5-savol;**

Moslikni toping

1. O'z-o'zini rivojlantirish va kasbiy o'sish	A) Kasbiy muammolarni hal qilish uchun boshqa o'qituvchilar va o'quvchilarning ota-onalari bilan faoliyat yuritish
2. Hamkasblar va ta'lim oluvchilarning ota-onalari bilan hamkorlik	B) Dars jarayoniga zamonaviy axborot texnologiyalar integratsiyasini rejalashtirish
	C) Maqsadli ishni takomillashtirish va tajriba almashishdan iborat bo'lgan maktabning "uslubiy kengashlari"da qatnashish

O'Z-O'ZINI RIVOJLANTIRISH VA KASBIY O'SISH

Mehnat harakatlari	Muntazam malaka oshirish kurslaridan o'tish
	U doimiy ravishda fanga oid adabiyotlar bilan tanishib, yangi bilimlarni amaliyotda qo'llash
	Seminar va treninglarda, shuningdek kasbiy rivojlanishni ta'minlashga qaratilgan boshqa tadbirlarda qatnashish
	Maqsadi ishni takomillashtirish va tajriba almashishdan iborat bo'lgan maktabning "uslubiy kengashlari"da qatnashish
	O'zaro darslarda qatnashish, ularni tahlil qilish, undan o'zining kasbiy faoliyatida foydalanish

HAMKASBLAR VA TA'LIM OLUVCHILARNING OTA-ONALARI (ULARNING O'RNINI BOSUVCHI SHAXSLAR) BILAN HAMKORLIK

Mehnat harakatlari	O'quvchilarning ota-onalarini (ularning o'rnini bosuvchi shaxslarni) ta'lim jarayoniga jalb qilish
	O'quvchilarning ota-onalarini (ularning o'rnini bosuvchi shaxslarni) sinf va maktab hayotiga jalb qilish
	O'quvchilarning ota-onalarini (ularning o'rnini bosuvchi shaxslarni) o'quvchilarni rivojlanishi va ta'lim muhiti to'g'risida qaror qabul qilishda ishtirok etishga jalb qilish
	O'quvchining individual ta'lim trayektoriyasini loyihalashtirish va to'g'rilash uchun o'qituvchilar va boshqa mutaxassislar bilan o'zaro aloqada bo'lib, ta'lim natijalarining barcha turlariga (fan, meta-mavzu va shaxsiy) erishish vazifalariga muvofiq ravishda hamkorlik qilish
	Tarbiyaviy muammolarni hal qilishda va o'quvchilarni hayotga tayyorlashda boshqa pedagogik xodimlar va mutaxassislar, jamoat tashkilotlari va bo'limlari (Yoshlar ittifoqi) bilan hamkorlik qilish

Zarur ko'nikmalar	Jamoadi ishlash
	Kasbiy muammolarni hamkorlikda hal qilish uchun boshqa o'qituvchilar va o'quvchilarning ota-onalari bilan hamkorlik qilish
	Turli xil muhitda har xil emotsional holatlardagi odamlar bilan aloqa qila bilish

JAVOB: 1-C; 2-A**5-savolga Asos Kasb standarti qo'llanmasi**

6-savol

Atamalarni ta'riflari bilan moslashtiring

1. <u>Maqsad</u>	A) <u>O'qitish jarayonida egallanishi lozim bo'lgan ilmiy bilim, amaliy ko'nikma va malakalar, faoliyat, fikrlash usullari tizimi</u>
2. <u>Mazmun</u>	B) <u>O'quv jarayonining so'nggi mahsuli, belgilangan maqsadlarning amalga oshganlik darajasi</u>
	C) <u>O'qitishning nimaga qaratilganligi, uning kuchlari kelgusida qay vo'sinda safarbar etilishi</u>

Javob; 1-C; 2-A

Maqsad	o' qitishning nimaga qaratilganligi, uning kuchlari kelgusida qay yo'sinda safarbar etilishi .
Mazmun	o'qitish jarayonida egallanishi lozim bo'lgan ilmiy bilim, amaliy ko'nikma va malakalar , faoliyat, fikrlash usullari tizimi.
Tashkil etish	qo'yilgan maqsadni samarali amalga oshirish uchun unga zaruriy shaklni taqdim

6-savoga Asos Mirzayeva "Pedagogika nazariyasi va tarixi "

7-savol;

O'qituvchi tomonidan qo'llaniladigan bu tadqiqot metodi ta'lim muassasasi ish jarayonining faollik darajasi, erishilgan yutuq hamda yo'l qo'yilgan kamchiliklarni aniqlash, ilg'or tajribalarni ommalashtirish, o'quv-tarbiyaviy ishlar samaradorligi, o'quvchilarda hosil bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning hajmini o'rganishga qaratilgan bo'lsa, u tadqiqotlar olib borishning qaysi metodidan foydalangan hisoblanadi?

Javob; Ta'lim muassasasi hujjatlarni tahlil qilish metodi

5	Ta'lim muassasasi hujjatlarni tahlil qilish metodi	Pedagogik hodisa va dalillarni tekshirish maqsadida ta'lim <u>muassasalari faoliyati mazmunini yorituvchi ma'lumotlarni tekshirish</u> maqsadga muvofiqdir. Mazkur metod O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni hamda «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» talablarining ta'lim muassasalari amaliyotidagi bajarilish holatini o'rganish, bu boradagi faollik darajasi, erishilgan yutuq hamda yo'l qo'yilgan kamchiliklarni aniqlash, ilg'or tajribalarni ommalashtirish va ta'lim muassasasi pedagogik tajribasini oshirish maqsadida qo'llaniladi.
---	--	--

7-savoga Asos Mirzayeva "Pedagogika nazariyasi va tarixi "

8-savol;

Moslikni toping

1. Uslubiy tahlil	A) Mavzuning ilmiyligi va izchilligi, oddiydan murakkabga tomon yo'nalishi, ko'rgazmaliligi va berilayotgan bilim, yangi axborotlarning hayotiyliigi, ularning jonli va ravon tilda ochib berilishi kuzatiladi
2. Didaktik tahlil	B) O'rganilayotgan mavzuga dasturda mo'ljallangan soatda, uni qanday usullar yordamida, o'quvchilarning yoshi va shaxsiy-psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda yetkazib bera olishi, o'quvchilarni o'ylashga, izlanishga majbur etishi va unga sharoit yaratishi kuzatiladi
	C) O'qituvchining tashqi qiyofasi, o'quvchilar bilan til topa olish mahorati, madaniyati, odobi bilan birgalikda dars jarayonida umuminsoniy tarbiyaning tarkibiy qismlarini o'quvchilarga bera olishi va uning nutq madaniyati kuzatiladi

Javob; 1-B; 2-A

DARS TAHLILI TURLARI		
1	Didaktik (Yoki ta'limiy) tahlil.	Tahlilning bu turida mavzuning <u>ilmiyligi va izchilligi, oddiydan murakkabga</u> tomon yo'nalishi, ko'rgazmaliligi va berilayotgan bilim, yangi axborotlarning hayotiyiligi, ularning jonli va ravon tilda ochib berilishi nazarda tutiladi
2	Uslubiy tahlil	Bunda o'qituvchi faoliyatining ikki tomoni: birinchidan , o'rganilayotgan mavzuga <u>dasturda mo'ljallangan soatda, uni qanday usullar yordamida, talabalarning yoshi va shaxsiy-psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda</u> yetkazib bera olishi, talabalarni o'ylashga, izlanishga majbur etishiva unga sharoit yaratishi; • ikkinchidan , o'qituvchi sifatidagi tajribalari qaysi darajada ekanligini namoyish eta olishi nazarda tutiladi. O'qituvchining ikkinchi tomoni tahlil etilayotganda, uning <u>ijodkorligi, uslubiy mahorati ko'zga tashlanishi lozim</u> . O'qituvchining ilg'or pedagogik va novatorlik tajribalari mana shu yerdan boshlanadi

8-savolga Asos Aliqulova "Innovatsion pedagogika"

9-savol:

Bir o'qituvchi yuqori sinf o'quvchilarining bahslashayotganini ko'rib qoldi. Bahslashayotgan o'quvchilarning fikrini eshitib, **bahsning sabab va oqibatlari** haqida to'g'ri xulosa chiqarishga harakat qildi. Vaziyatni yumshatib, sinfdoshlarni yarashtirib qo'ydi.

Bunda o'qituvchining qanday qobiliyati yaqqol namoyon bo'ldi?

Javob; Mantiqiy qobiliyat

		yarata oladi, hayot ma'nalaridan foydalanishni biladi
5	Mantiqiy qobiliyat	Falsafiy mulohazalar yuritishni, <u>raqam larni matematikani, murakkab masalalarni hal qilishni sevadi</u> , sababiyat va qoibat natijalarini tushunish malakasiga ega, voqelikda asosiylikni ikkinchi darajalisidan ajrata oladi;

10-savolga Asos Xoliqov "Pedagogik mahurat" darslik

11-savol;

O'qituvchi o'quvchilar tomonidan bilim olish va ularni qo'llash usullarini ongli va faol egallab olishlariga imkoniyat yaratadi. Bu orqali u o'quvchilarda tafakkur va o'z fikrini mustaqil bayon etish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Bunda o'qituvchi didaktik qoidalarining qaysi birini amalga oshiradi?

11-Savolga Asos mantiq

12-savol;

Kasbiy tayyorgarlik bir necha yo'nalishni o'z ichiga qamrab oladi. O'qituvchilarning kasbiy pedagogik tayyorgarligining yo'nalishlari to'g'ri ko'rsatilgan qatorlarni belgilang:

1. O'qituvchining shaxsiy fazilatlar bo'yicha tayyorgarligi
2. O'qituvchining ruhiy-psixologik tayyorgarligi
3. O'qituvchining jismoniy tayyorgarligi
4. O'qituvchining ijtimoiy-pedagogik va ilmiy-nazariy jihatdan tayyorgarligi
5. O'qituvchining maxsus va ixtisoslikka oid uslubiy bilimlarni egallab borishi

Javob; 1,2,4,5

qobiliyati, tashkilotchiligi, notiqlik madaniyati, chuqur va keng ilmiy saviyasi, kasbiy layoqatligi, ma'naviy ehtiyoji va qiziqishi, intellekti, yangilikni anglay va qo'llay olishi, kasbiy ma'lumotni muntazam oshirishga nisbatan intilishi va boshqa **fazilatlari** kiradi.

O'qituvchilarning kasbiy pedagogik tayyorgarligi shartli ravishda quyidagi yo'nalishlarda olib boriladi:

- 1) O'qituvchining shaxsiy fazilatlar bo'yicha tayyorgarligi.
- 2) O'qituvchining ruhiy – psixologik tayyorgarligi.
- 3) O'qituvchining ijtimoiy – pedagogik va ilmiy – nazariy jihatdan tayyorgarligi.
- 4) O'qituvchining maxsus va ixtisoslikka oid uslubiy bilimlarni egallab borishi.

Yana ta'kidlash joizki, pedagogik mahorat o'qituvchilar hamda tarbiyachilar shaxsiy va kasbiy sifatlarining yig'indisi bo'lib, o'qituvchi mahoratini shakllantirishni ta'minlovchi omillarni, pedagogik-psixologik, metodik bilimlarni doimiy egallab borishi lozim. Yuksak pedagogik mahoratni shakllantirishni ta'minlovchi **omillar** quyidagilar:

a) ixtisoslik bo'yicha o'quv predmetini zamon ilmi-fan texnika

12-savolga Asos Xoliqov "Pedagogik mahurat" darslik

13-savol;

Moslikni toping

1. Rivojlantiruvchi ta'lim	A) O'quvchilar shaxsiyatini rivojlantirishning ichki mexanizmlarini o'z ichiga olgan va ularning intellektual hamda ijodiy qobiliyatlarini to'liq amalga oshirishga yordam beradigan ta'lim tizimi
2. Modul tizimli ta'lim	B) Har bir fan alohida vaqt oralig'ida o'rganiladigan o'quv formati
	C) O'quvchilar tomonidan o'quv materiallarini masofadan o'rganish, ularning bilimlarini sinab ko'rish va o'qituvchilar bilan aloqa qilish uchun Internet va zamonaviy texnologiyalardan foydalanishni o'z ichiga olgan ta'lim shakli

Бунда, шунингдек, кўпроқ ҳурдада таълим самаралироқ бўлади.

2. Модул таълими. Модул таълимидан ўқувчиларнинг мустақил таълим олишларини йўлга қўйиш, уларни маълум ўқув материаллари билан таъминлаш, ўқувчиларнинг таълимий фаолияти юзасидан мониторингини ташкил этишда фойдаланилади. Уни қўллашда ўқувчиларга яхлит ўқув материали блок (алоҳида ажратилган қисм)ларда 1-блок, 2-блок ва ҳ.к. тарзида тақдим этилади. Модул таълими асосида масофавий таълимни ҳам йўлга қўйиш мумкин. Бунда ўқувчилар алоҳида чоп этилган ёки компьютер варианты кўринишидаги блоклардан иборат материаллар билан таъминланади. Тақдим этилган материаллар ўқувчилар томонидан тўла ўрганилгандан сўнг уларга назарий билимларга эгалликни мустақил баҳолаш, мавжуд билимларни мустаҳкамлашга хизмат қилувчи педагогик ёки психологик характердаги топшириқлар берилади.

3. Дастурий таълим. Ўқувчиларнинг ички эҳтиёжлари, қизиқишлари, улар томонидан ўқув материалларини ўзлаштиришда дуч келаётган муаммолар, ўқувчиларнинг билим, дунёқараш, ўқув фанининг имкониятларини инобатга олган ҳолда ташкил этилади. Узлуксиз таълим жараёнида дастурий таълимни қўллашда ўқитувчилар томонидан муаллифлик дастурларининг ишлаб чиқиши аҳамиятлидир. Зеро, муаллифлик дастурлари ўқув машғулотларининг ранг-баранг бўлишини таъминлаш билан бирга мавжуд имкониятларни тўла инобатга олган ҳолда ишлаб чиқилади.

4. Ривожлантирувчи таълим. Мазкур таълим ўқувчиларнинг ички имкониятларини ошириш, уларни рўёбга чиқаришга йўналтирилади. Ривожлантирувчи таълимда, кўпроқ, тренинглардан фойдаланилади. Тренинглар таълим олувчиларда муайян билимларни пухта ўзлаштириш, уларни амалиётда самарали қўллаш олишга доир кўникма, малакаларни шакллантиришга, бу жараёнда уларнинг мавжуд имкониятларини тўла рўёбга чиқаришга ёрдам беради. Бугунги кунда узлуксиз таълим тизимида ривожлантирувчи таълимни қўллашда, тақдиротлардан ҳам самарали фойдаланиш тажрибаси тўпланди. Мазкур метод таълим олувчиларда ўқув фаолиятини ташкил этишга ижодий ёндашиш, ўз устида ишлаш, мустақил таълим олиш кўникмаларини ҳам ривожлантиришга ёрдам беради.

Javob: 1-A: 2-B

13-savolga Asos Inayatov "Pedagogika" darslik

14-savol;

O'qituvchi yangi bilimlarni berib borish bilan birgalikda bir necha maxsus darslarda o'quvchilarning egallagan bilimlarini mustahkamlash hamda bu bilimlarni turli hayotiy vaziyatlarda qo'llay olishlarini nazorat qilib bordi. Bunda o'qituvchi darsning qaysi turidan foydalandi?

Javob: Ko'nikma va malakalami ishlab chiqish va mustahkamlash darsi

5	Ko'nikma va malakalami ishlab chiqish va mustahkamlash darsi	egallangan bilimlarni o'quvchilar tomonidan mustahkamlash ham kutubxonasida amaliyotda qo'llay olish bilan bog'liqdir. Ushbu ta'lim jarayoni bir nechta maxsus darslarda amalga oshiriladi. Yangi mavzulami o'rganishda davom ettiriladi. Bunda o'qituvchining vazifasi o'quvchilarning <u>nazariy bilimlar asosida egallagan malaka va ko'nikmalarini, hayotiy amaliyotlarida turli vaziyatlarda qo'llashni o'zlashtirib olishlarini nazorat qilishdan iborat.</u>
---	---	---

14-savolga Asos Xoliqov "Pedagogik mahurat" darslik

15-savol:

Pedagoglar doimiy ravishda kasbiy mahoratlarini rivojlantirib borishlari darkor. Bu rivojlanish turli yo'nalishlarda bo'lishi mumkin. Agar, pedagog o'zbek adabiy tilining yozma va og'zaki shakllarini mukammal egallashga, ma'naviy va madaniy sohada o'sishga intilsa, badiiy adabiyotlarni ko'p o'qisa, u pedagogning qaysi kasbiy kompetensiya sohasini rivojlantirishga e'tibor qaratgan bo'ladi?

Javob: Nutq madaniyati va notiqlik san'ati

15-SAVOLGA ASOS XOLIQOV "PEDAGOGIK MAHURAT" DARSLIK

4. **Nutq madaniyati** — bu, avvalo, o'qituvchilarda nutqiy ko'nikma va nutqiy malakalarni hosil qiladi. Bu ko'nikma pedagogik faoliyatda takomillashib boradi, maxsus mehnat va mashqlar evaziga malaka oshiriladi hamda erishilgan muvaffaqiyatlar tufayli qobiliyat va mahorat shakllanadi.

5. **Nutq madaniyatiga** o'zbek adabiy tilini mukammal egallash asosida erishiladi. Buning uchun o'qituvchi adabiy til qonuniyatlarini bilishi, badiiy adabiyot asarlarini doimiy o'qib borishi, she'rlar yod olishi va uni deklamatsiya bilan o'qiy olishi, radio va televideniye eshittirishlarini kuzatib borishi lozim.

6. **Nutq madaniyati**ni egallashning yana bir ko'rinishi nutqiy taqlid bo'lib, yosh o'qituvchilar o'zidan yaxshiroq, chiroyliroq, ma'noli va